**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAXAMMADALIYEV MUXTORJON TURSUNMUXAMMAD O‘G‘LI**

# AMENABEL BO‘LMAGAN GRAFLARDA QATTIQ DISKLI (HC) VA POTTS MODELLARI UCHUN DAVRIY GIBBS O‘LCHOVLARI

**01.01.01 – Matematik analiz**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan - 2023 yil**

UDK: 517.98 – 519.21

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences**


**Maxammadaliyev Muxtorjon Tursunmuxammad o'g'li**
Amenabel bo'lmagan graflarda qattiq diskli (HC) va Potts modellari uchun davriy Gibbs o'lchovlari . . . . . . . . . . 3

**Махаммадалиев Мухторжон Турсунмухаммад угли**
Периодические меры Гиббса для моделей жесткой сердцевины (HC) и Поттса на неаменабельных графах . . . . . . . . . . 21

**Mahammadaliev Muhtorjon Tursunmukhammad ugli**
Periodic Gibbs measures for the Hard Core (HC) and Potts models on non-amenable graphs . . . . . . . . . . 39

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati**
Список опубликованных работ
List of published works . . . . . . . . . . 43

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAXAMMADALIYEV MUXTORJON TURSUNMUXAMMAD O‘G‘LI**

# AMENABEL BO‘LMAGAN GRAFLARDA QATTIQ DISKLI (HC) VA POTTS MODELLARI UCHUN DAVRIY GIBBS O‘LCHOVLARI

**01.01.01 – Matematik analiz**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan – 2023 yil**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2019.4.PhD/FM426 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (https://kengash.mathinst.uz) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'ida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Xakimov Rustamjon Maxmudovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori (DSc) |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Jamilov Uyg'un Umurovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim<br>**Botirov G'olibjon Isroilovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim |
| **Yetakchi tashkilot:** | **O'zbekiston Milliy Universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "1"-avgust kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (163 raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "19"-iyul kuni tarqatildi.

(2023-yil "19"-iyul dagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

**U.A. Rozikov**
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

**J.K. Adashev**
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

**U.U. Jamilov**
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

**KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Ma'lumki, axborot almashinuvi nazariyasi hamda xizmat ko'rsatish nazariyasining ko'plab muammolari asosan fizik va biologik sistemalarning termodinamik xossalarini tadqiq qilishda muhim obyekt bo'lgan Gibbs o'lchovlari nazariyasi masalalariga keltiriladi. Ta'kidlash joizki, Gibbs o'lchovlari statistik mexanikada ko'p sonli zarrachalardan tashkil topgan sistemalarni tavsiflashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Panjarali sistemalarda Gibbs o'lchovlari nazariyasining rivojlanishini R.L.Dobrushin, O.E.Lanford va D.Ryuelning tadqiqotlari asosida termodinamika masalalaridan boshlangan bo'lsa-da, bugungi kunda uning tatbiqlarini kimyo, fizika, biologiya, iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish nazariyasi, materialshunoslik kabi fan va texnikaning turli sohalarida uchratish mumkin.

Oxirgi yillarda dunyoda fanning amaliy tatbiqlarga ega yo'nalishlaridan biri – statistik fizika va mexanika masalalarini o'rganishning asosiy ob'ekti bo'lgan Gibbs o'lchovlari nazariyasini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hamda axborot almashinuvi nazariyasi masalalariga optimal yechim topishga alohida e'tibor qaratildi. Bunda fizika va statistik mexanikaning amenabel bo'lmagan graflarda berilgan modellariga mos translyatsion-invariant, davriy, kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Gibbs o'lchovlari nazariyasining quyidagi yo'nalishlarida maqsadli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi: berilgan Hamiltonian uchun davriy Gibbs o'lchovlarning to'liq tavsifini aniqlash; bunday o'lchovlarning chekka o'lchov bo'lish masalasini tadqiq qilish; spin qiymatlari to'plami sanoqli bo'lgan modellar uchun fazalar almashinuvi mavjudligini tekshirish. Yuqorida keltirilgan yo'nalishlarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dissertatsiya mavzusining dolzarbligini izohlaydi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo'lgan funksional analiz va haqiqiy o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasinining dolzarb yo'nalishlariga e'tibor kuchaytirilmoqda. Shu o'rinda oxirgi yillarda sanoqli graflarda aniqlangan, spin qiymatlari chekli yoki sanoqli bo'lgan klassik modellarga mos translyatsion-invariant, davriy va kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlarini qurish hamda funksional analizning amaliy muammolarni hal etish borasida salmoqli natijalarga erishilganini e'tirof etish joiz. "Funksional analiz, matematik fizika va o'lchovlar nazariyasi" fanlarining ustivor yo'nalishlari bo'yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi[1]. Ilmiy natijalarni fanning turdosh sohalarida qo'llash, qaror ijrosini ta'minlash maqsadida amenabel bo'lmagan graflarda spin qiymatlari ko'pi bilan sanoqli bo'lgan va konfiguratsiyalariga qattiq cheklashlar qo'yilgan modellarga mos Gibbs o'lchovlarini qurish va bunday o'lchovlar to'plamining strukturasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 18-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqotlar muassasalari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 292-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmonlari, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son "Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi**. Doimiy harorat saqlanadigan va atrof-muhit bilan issiqlik muvozanatidagi sistemalar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Gibbs taqsimoti tushunchasi amerikalik olim J.U. Gibbs tomonidan kiritilgan. Gibbs o‘lchovi fizik sistemaning ma’lum bir holatda bo‘lish ehtimolligini aniqlash hamda termodinamik kattaliklarni sistemaning mikroskopik xossalari bilan bog‘lash imkonini beradi. Limit Gibbs o‘lchovining umumiy ta’rifi N.N. Bogolyubov, B.I. Xatset, R.L. Dobrushin, O.E. Lanford va D. Ryuel ishlarida berilgan. R.L. Dobrushin tomonidan limit Gibbs o‘lchovining mavjudligi haqidagi teorema isbotlangan. Faza almashinuvining asosiy nazariyasi S.A. Pirogov, Ya.G. Sinay, R.A. Minlos, N. Datta, R. Fernandez, J. Fröhlich, A.C.D. Enter va M. Zahradnik ishlarida o‘z aksini topgan.

Qattiq disklar (HC) modeli $d$-o‘lchovli $\mathbb{Z}^d$ panjarada A.E. Mazel va Yu.M. Suhovlar tomonidan kiritilgan va rivojlantirilgan. Keli daraxtida qattiq jismni modellashtirish uchun Monte-Karlo algoritmidan foydalaniladi. Tasodifiy bog‘liqmas graflar to‘plamini va panjarada gaz molekulalarinining sistemasini o‘rganishda HC modellarining paydo bo‘lishini hamda ularning tatbiqlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni R. Bekster, G.R. Braytvel, P. Uinkler, D. Galvin, J. Kan, F. Kelly, G. Louz, P. Mitra, K. Ramanan, A. Sengupta, I. Ziedins ishlarida ko‘rish mumkin. HC modellari uchun Keli daraxtida translyatsion-invariant, davriy, kuchsiz davriy va boshqa Gibbs o‘lchovlarini qurish, shuningdek, bunday o‘lchovlar to‘plamining strukturasini tahlil qilish bo‘yicha G.R. Braytvel, A.E. Mazel, F. Spitser, F. Martinelli, P. Uinkler, D. Galvin, O. Häggström, J. Kan, F. Kelly, G. Louz, P. Mitra, K. Ramanan, A. Sengupta, I. Ziedins, Yu.M. Suhov, J. Martin, D. Gandolfo, O‘.A. Roziqov, Sh.A. Shoyusupov, R.M. Xakimov, O.N. Hakimov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

N.N. G‘anixo‘jaev, O‘.A. Roziqov, M.M. Raxmatullayev, F.H. Haydarov, R.M. Xakimov, C. Kuelske, F. Vagner, D. Grensing, J. Heide, F.Y. Wularning tadqiqotlari Potts modeli uchun limit Gibbs o‘lchovlariga bag‘ishlangan. Ferromagnit Potts modeli uchun translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlarining to‘liq tavsifi va ularning chekka o‘lchov bo‘lish masalasi C. Kuelske, O‘.A. Roziqov va R.M. Xakimov ishlarida o‘rganilgan. Kuchsiz davriy Gibbs o‘lchovi tushunchasi O‘.A. Roziqov va M.M. Raxmatullayev ishlarida kiritilgan. Keli daraxtida Izing, Potts va HC modellari uchun bunday o‘lchovlarning mavjudligi O‘.A. Roziqov, M.M. Raxmatullayev va R.M. Xakimovlar ishlarida isbotlangan. Yuqoridagi kabi ko‘plab ilmiy ishlar bajarilganiga qaramasdan, Keli daraxtida hozirgacha birorta ham model uchun limit Gibbs o‘lchovlarining to‘liq tavsifi olinmaganligini ta’kidlash joiz.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Fundamental tadqiqotlar” tarmog‘i doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** Keli daraxtida spin qiymatlari to‘plami ko‘pi bilan sanoqli bo‘lgan Potts va HC modellari uchun limit Gibbs o‘lchovlarining mavjudligini isbotlash va bunday o‘lchovlar to‘plamining strukturasini tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ikkinchi va uchinchi tartibli Keli daraxtida ikki holatli HC modeli uchun davriy Gibbs o‘lchovlarining to‘liq tavsifi va ularning chekka bo‘lishini aniqlash;

ikki holatli HC modeli uchun davri to‘rt bo‘lgan kuchsiz davriy (davriy bo‘lmagan) Gibbs o‘lchovlari mavjudligining yangi shartlarni topish;

spin qiymatlari to‘plami sanoqli bo‘lgan HC modeli uchun translyatsion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlari yagona bo‘lmaydigan shartlarni aniqlash;

uchinchi tartibli Keli daraxtida to‘rt holatli Potts modeli uchun translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlarining chekka o‘lchov bo‘lish oraliqlarini ko‘rsatish;

**Tadqiqot ob’ekti:** Keli daraxti, ikki holatli HC modeli, sanoqli holatli HC modeli, $q$ holatli Potts modeli, translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovi, davriy o‘lchovlar, kuchsiz davriy o‘lchovlar va ehtimollik bo‘lmagan Gibbs o‘lchovlari.

**Tadqiqot predmeti.** Gruppalar va graflar nazariyasi, Gibbs o‘lchovlari nazariyasi, algebra, nochiziqli dinamik sistemalar nazariyasi, matematik analiz, funksional analiz, Markov jarayonlari.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot ishida matematik analiz, funksional analiz, kombinatorika, gruppalar nazariyasi, o‘lchovlar nazariyasi, chiziqli algebra va dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ikki holatli HC modeli uchun normal bo‘luvchi indeksi to‘rt bo‘lgan holda kuchsiz davriy Gibbs o‘lchovi yagona bo‘ladigan hamda mavjud va yagona bo‘lmaydigan yangi shartlar topildi;

spin qiymatlari to‘plami sanoqli bo‘lgan HC modeli uchun “Jezl” turidagi graf holida 2, 3, 4-tartibli Keli daraxtida translyatsion-invariant va 2, 3-tartibli Keli daraxtida davriy ehtimollik bo‘lmagan Gibbs o‘lchovlarining aniq sonini ta’minlovchi shartlar topildi;

to‘rt holatli ferromagnit Potts modeli uchun uchinchi tartibli Keli daraxtida translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlarining chekka o‘lchov bo‘lish va bo‘lmaslik shartlari topildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Olingan natijalar va dissertatsiyada qo‘llanilgan usullar oliy o‘quv yurtlarida magistratura talabalari va tayanch doktorantlar uchun o‘quv kurs sifatida o‘qitilishi mumkin. Shuningdek, HC modeli uchun faza almashishini ta’minlovchi parametrlarning aniq qiymatlaridan xizmat ko‘rsatish va axborot almashish nazariyasi masalalarini yechishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Funksional analiz, sonlar nazariyasi, diskret vaqtli dinamik sistemalar, Gibbs o‘lchovlar nazariyasi, nochiziqli operatorlar nazariyasi usullari va qo‘zg‘olmas nuqtalar haqidagi teoremalardan foydalanilgan. Olingan natijalar qat’iy matematik mulohazalarga asoslanib isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati**. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati HC va Potts modellariga mos translyatsion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tavsiflash borasidagi ilmiy natijalar statistik mexanika va fizikaning turli modellarining termodinamik xossalarini tadqiq qilishda qo‘llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati spin qiymatlari to‘plami sanoqli bo‘lgan HC modeli uchun Gibbs o‘lchovlarini qurish, parametrning ma’lum shartlarida chekli holatli HC modeli uchun Gibbs o‘lchovining mavjudligini tekshirish imkonini bergani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Amenabel bo‘lmagan graflarda qattiq diskli (HC) va Potts modellari uchun davriy Gibbs o‘lchovlari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

HC modeli uchun kuchsiz davriy Gibbs o‘lchovlarining mavjud va yagonaligini isbotlash usullaridan YOT-FTEX-2018-154-sonli “$\mathbb{Z}^d$ panjaralarida va $G^k$ Keli daraxtlarida gamiltonianlar spektrlari va Gibbs o‘lchovlari” mavzusidagi fundamental loyihada statistik mexanikaning spin qiymatlari to‘plami kontinuum bo‘lgan ba’zi modellari uchun translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlarini tadqiq qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 27-apreldagi 04/11-2400-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijaning qo‘llanilishi spin qiymatlari to‘plami kontinuum bo‘lgan ba’zi modellari uchun translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tavsiflash imkonini bergan.

Qattiq diskli model uchun kuchsiz davriy Gibbs o‘lchovlarining yagonaligini isbotlash usullaridan YoFA-Ftex-2018-78 “Amenabel bo‘lmagan graflarda dinamik va termodinamik sistemalar” nomli fundamental loyihada Potts modeli uchun kuchsiz davriy Gibbs o‘lchovlarini tadqiq qilishda foydalanilgan (Matematika Institutining 2023-yil 28-apreldagi 02/167-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijaning qo‘llanilishi Potts modeli uchun parametrlarning ma’lum shartlarida kuchsiz davriy Gibbs o‘lchovlarining mavjud bo‘lmasligini isbotlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 15 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 5 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, jumladan 3 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, to‘qqizta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 111 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Chekli holatli HC modellari uchun Gibbs o‘lchovlari**” deb nomlanuvchi birinchi bobida Keli daraxtida ikki holatli HC modeli o‘rganilgan. Qaralayotgan model uchun zarur ta’riflar hamda ma’lum natijalar keltirilgan. Gibbs o‘lchovi hamda Gibbs o‘lchovlari nazariyasiga oid boshqa tushunchalar berilgan. Ikkinchi va uchinchi tartibli Keli daraxtida ikki-davriy Gibbs o‘lchovlarining to‘liq tavsifi berilgan va ularning chekka bo‘lish oraliqlari aniqlangan. Bundan tashqari, HC modeli uchun normal bo‘luvchi indeksi to‘rt bo‘lgan holda kuchsiz davriy Gibbs o‘lchovlarining yagona bo‘lish va yagona bo‘lmaslik shartlari topilgan.

**1-ta’rif.** $G=(V,L)$ cheksiz va bog‘lamli graf bo‘lsin. Agar $G$ graf uchun

$$\inf_{A\subset V,|A|<\infty}\frac{|\partial A|}{|A|}=0$$

tenglik bajarilsa, u holda $G$ amenabel graf, aks holda amenabel bo‘lmagan graf deyiladi. Bu yerda $|\partial A|-$ $A$ to‘plamning chegarasidagi uchlari soni, $|A|-$ esa $A$ to‘plamning ichidagi uchlari soni.

$d$ o‘lchamli $\mathbb{Z}^d$ panjara, uchburchakli, oltiburchakli panjaralar amenabel graf bo‘ladi, Keli va Bruhat-Tits daraxtlari, giperbolik graflar, Schreier grafi amenabel bo‘lmagan grafga misol bo‘ladi.

**1-eslatma.** Keli daraxtidan boshqa amenabel bo‘lmagan graflarda Gibbs o‘lchovlari kam o‘rganilgan. Masalan, bunday graflar uchun gruppaviy tasvir mavjud bo‘lmagani sababli davriy Gibbs o‘lchovlari aniqlanmagan. Biz davriy Gibbs o‘lchovlarini gruppaviy tasvir mavjud bo‘lgan Keli daraxtida o‘rganamiz.

$\tau^k = (V, L)$ ni qaraylik, bu yerda $V$ daraxtning uchlari to‘plami, $L$ uning qirralari to‘plami. Agar $x, y \in V$ uchlar uchun ularni tutashtiruvchi $l \in L$ qirra mavjud bo‘lsa, u holda $x$ va $y$ uchlar eng yaqin qo‘shnilar deyiladi va $l = \langle x, y\rangle$ kabi belgilanadi. Keli daraxtida $x, y \in V$ uchlar orasidagi $d(x, y)$ masofa ushbu

$$d(x,y) = \min\{d \mid \exists x = x_0, x_1, \dots, x_{d-1}, x_d = y \in V, \quad \langle x_0, x_1\rangle, \dots, \langle x_{d-1}, x_d\rangle\}$$

formula orqali aniqlanadi.

Fiksirlangan $x^0 \in V$ uchun quyidagicha belgilashlar kiritamiz:

$$W_n = \left\{x \in V \mid d(x, x^0) = n\right\}, \quad V_n = \bigcup_{j=0}^{n} W_j, \quad L_n = \left\{l = \langle x, y\rangle \in L \mid x, y \in V_n\right\}.$$

$x \in W_n$ uchun $S(x) = \{y \in W_{n+1} : d(x, y) = 1\}$ to‘plam $x$ uchning to‘g‘ri avlodlari to‘plami deyiladi.

$G_k -$barpo etuvchilari mos ravishda $a_1, a_2, ..., a_{k+1}$ bo‘lgan $k+1$ ta ikkinchi tartibli siklik gruppalarning ozod ko‘paytmasi bo‘lsin.

Quyidagi tasdiq N.N. G‘anihodjayevning ishlaridan ma’lum.

**1-tasdiq**. $k$-tartibli Keli daraxtining $V$ uchlar to‘plami bilan $G_k$ gruppa o‘rtasida o‘zaro bir qiymatli moslik mavjud.

$A \subseteq V$ to‘plamda aniqlangan $x \in A \to \sigma_A(x) \in \Phi = \{0, 1, ..., q\}$ funksiya konfiguratsiya deyiladi. $A$ to‘plamda aniqlangan barcha konfiguratsiyalar to‘plami $\Omega_A = \Phi^A$ kabi belgilanadi. Xususan, $\Omega = \Omega_V$ va $\sigma = \sigma_V$.

$\sigma \in \Omega$ konfiguratsiyaning energiyasi ushbu

$$H(\sigma) = \sum_{\substack{A \subset V: \\ diam(A) \le r}} I(\sigma_A), \tag{1}$$

gamiltonian orqali beriladi, bu yerda $r \in N$, $diam(A) = \max\limits_{x,y \in A} d(x, y)$ va $I(\sigma_A) : \Omega_A \to R -$ berilgan potensial.

$D^c = V \setminus D$ da $\varphi_{D^c}$ chegaraviy shart berilgan chekli $D \subset V$ soha uchun shartli gamiltonian quyidagi

$$H(\sigma_D \mid \varphi_{D^c}) = \sum_{A \Subset V : A \cap D \ne \varnothing} I(\sigma_A)$$

ko‘rinishga ega, bu yerda

$$\sigma_A(x) = \begin{cases} \sigma(x), \text{ agar } x \in A \bigcap D \\ \varphi(x), \text{ agar } x \in A \bigcap D^c. \end{cases}$$

**B** $-$ $\Omega$ to‘plamning chekli asosli silindrik qism to‘plamlaridan tashkil topgan $\sigma$-algebra bo‘lsin. Ushbu

$$\sigma_A \vee \tilde{\sigma}_{V \setminus A}(x) = \begin{cases} \sigma(x), \text{ agar } x \in A, \\ \tilde{\sigma}(x), \text{ agar } x \in V \setminus A. \end{cases}$$

konfiguratsiyani qaraylik.

**2-ta'rif.** Agar ixtiyoriy chekli $A \subset V$ uchun ushbu

$$\mu(\sigma_A \mid \tilde{\sigma}_{V\setminus A}) = \frac{e^{-\beta H(\sigma_A \vee \tilde{\sigma}_{V\setminus A})}}{Z_{A,\tilde{\sigma}}},$$

tenglik o'rinli bo'lsa, u holda $\mu$ ehtimollik o'lchovi **B** $\sigma -$algebrada limit Gibbs o'lchovi deyiladi, bu yerda $H(\sigma)$ (1) formula orqali aniqlangan, $\beta = 1/T$, $T > 0 -$ harorat va $Z_{A,\tilde{\sigma}} = \sum_{\varphi \in \Omega_A} e^{-\beta H(\varphi_A \vee \tilde{\sigma}_{V|A})}$.

$\mathcal{G}(H) -$barcha limit Gibbs o'lchovlari to'plami bo'lsin. Ma'lumki, agar $H -$ uzluksiz gamiltonian bo'lsa, $\mathcal{G}(H)$ to'plam har bir $\beta > 0$ uchun $(\Omega, \mathbf{B})$ da aniqlangan barcha ehtimolliklar to'plamining bo'sh bo'lmagan qavariq kompakt qism to'plami bo'ladi.

Asosiy masalalar. Tadqiqot ishida quyidagi ikkita masala muhim hisoblanadi:

1) Berilgan gamiltonian uchun hech bo'lmaganda bitta Gibbs o'lchovining mavjudligini aniqlash.

2) Berilgan gamiltonianga mos barcha Gibbs o'lchovlari to'plamining strukturasini tahlil qilish.

$\Phi = \{0,1\}$ va $\sigma \in \Phi^V -$konfiguratsiya bo'lsin, bunda $\sigma(x) = 1$ ekanligi Keli daraxtida $x$ uchning "band" ligini, $\sigma(x) = 0$ esa uning "vakant" ligini bildiradi.

**3-ta'rif**. Agar $V$ $(V_n)$ dagi ixtiyoriy $\langle x, y \rangle$ uchun $\sigma(x)\sigma(y) = 0$ bajarilsa, u holda $\sigma$ konfiguratsiya joiz konfiguratsiya deyiladi.

Joiz konfiguratsiyalar to'plamini $\Omega^a$ $(\Omega^a_{V_n})$ kabi belgilaymiz. U holda $\Omega^a \subset \Phi^V$.

HC-modelning gamiltoniani ushbu

$$H(\sigma) = \begin{cases} J\sum_{x \in V} \sigma(x), & \text{agar } \sigma \in \Omega^a, \\ +\infty, & \text{agar } \sigma \notin \Omega^a, \end{cases}$$

formula orqali aniqlanadi, bu yerda $J \in R$.

Har qanday joiz $\sigma_n \in \Omega^a_{V_n}$ konfiguratsiya uchun $\#\sigma_n$ orqali $V_n$ dagi birlar (band uchlar) sonini belgilaymiz:

$$\#\sigma_n = \sum_{x \in V_n} \sigma_n(x).$$

$z : x \mapsto z_x = (z_{0,x}, z_{1,x}) \in R^2_+$ funksiya $V$ da berilgan vektor-funksiya bo'lsin. $\Omega^a_{V_n}$ da $n = 1, 2, \ldots$ uchun quyidagicha

$$\mu^{(n)}(\sigma_n) = \frac{1}{Z_n} \lambda^{\#\sigma_n} \prod_{x \in W_n} z_{\sigma_n(x), x} \tag{2}$$

aniqlangan $\mu^{(n)}$ ehtimollik taqsimotini qaraylik, bu yerda $\lambda = e^{J\beta} > 0 -$parametr, $Z_n -$normallovchi bo'luvchi:

$$Z_n = \sum_{\varphi_n \in \Omega^a_{V_n}} \lambda^{\#\varphi_n} \prod_{x \in W_n} z_{\varphi_n(x),x}.$$

Agar ixtiyoriy $n \geq 1$ va $\sigma_{n-1} \in \Omega^a_{V_{n-1}}$ uchun quyidagi

$$\sum_{\omega_n \in \Omega_{W_n}} \mu^{(n)}(\sigma_{n-1} \vee \omega_n)\mathbf{1}(\sigma_{n-1} \vee \omega_n \in \Omega^a_{V_n}) = \mu^{(n-1)}(\sigma_{n-1}),$$

tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda $\mu^{(n)}$ ehtimolliklar ketma-ketligi muvofiqlashgan deyiladi, bu yerda

$$\mathbf{1}(\sigma_{n-1} \vee \omega_n \in \Omega^a_{V_n}) = \begin{cases} 1, \text{ agar } & \sigma_{n-1} \vee \omega_n \in \Omega^a_{V_n} \\ 0, \text{ agar } & \sigma_{n-1} \vee \omega_n \notin \Omega^a_{V_n}. \end{cases}$$

Agar $\mu^{(n)}$ uchun muvofiqlik sharti bajarilsa, u holda Kolmogorov teoremasiga ko‘ra $(\Omega^a, \mathbf{B})$ da ixtiyoriy $n$ va $\sigma_n \in \Omega^a_{V_n}$ uchun ushbu

$$\mu(\{\sigma : \sigma|_{V_n} = \sigma_n\}) = \mu^{(n)}(\sigma_n)$$

tenglikni qanoatlantiruvchi yagona $\mu$ o‘lchov mavjud.

$G_k^*$ gruppa $G_k$ gruppaning qism gruppasi bo‘lsin.

**4-ta’rif.** Agar $\forall x \in G_k$, $y \in G_k^*$ uchun $z_{yx} = z_x$ bo‘lsa, u holda $z = \{z_x, x \in G_k\}$ miqdorlar to`plami $G_k^*$-davriy deyiladi.

$G_k$-davriy miqdorlar to`plami translyatsion-invariant deyiladi.

Ixtiyoriy $x \in G_k$ uchun $\{y \in G_k : \langle x, y\rangle\} \setminus S(x)$ to‘plam yagona elementga ega, bu elementni $x_\downarrow$ orqali belgilaymiz.

$G_k / G_k^* = \{H_1, ..., H_r\}$ – faktor gruppa bo‘lsin, bu yerda $G_k^*$ – bu $r \geq 1$ indeksli normal bo‘luvchi.

**5-ta’rif.** Agar $x \in H_i$, $x_\downarrow \in H_j$ da $z_x = z_{ij}$ bo‘lsa, u holda $z = \{z_x, x \in G_k\}$ miqdorlar to`plami $G_k^*$-kuchsiz davriy deyiladi.

**2-eslatma**. Agar $z_x$ miqdorning qiymati $x_\downarrow$ ga bog‘liq bo‘lmasa, u holda $x_\downarrow$ kuchsiz davriy miqdorlar oddiy davriy bilan ustma-ust tushadi.

**6-ta’rif.** $G_k^*$-(kuchsiz) davriy $z$ miqdorlar to`plamiga mos $\mu$ o‘lchovni $G_k^*$-(kuchsiz) davriy o‘lchov deyiladi.

Ma’lumki, Keli daraxtida HC modeli uchun (2) ko‘rinishda aniqlangan $\mu^{(n)}(\sigma_n)$ $(n = 1, 2, \ldots)$ ehtimollik taqsimotlari ketma-ketligi muvofiqlashgan bo‘lishi uchun ixtiyoriy $x \in V$ da $z = \{z_x, x \in G_k\}$ miqdorlar to‘plami ushbu

$$z'_x = \prod_{y \in S(x)} \frac{1}{1 + \lambda z'_y},$$

tenglikni qanoatlantirishi zarur va yetarli, bu yerda $\lambda = e^{J\beta} > 0$ – parametr.

$G_k^{(2)}$ gruppa $G_k$ gruppaning uzunligi juft bo‘lgan so‘zlardan iborat qism gruppasi bo‘lsin, ya’ni

$$G_k^{(2)} = \{x \in G_k : |x| - \text{juft}\}.$$

Yu.M. Suhov va U.A. Rozikov ishlarida $k \geq 2$ va $\lambda > k^k \cdot (k-1)^{-k-1}$ bo‘lganda HC modeli uchun translyatsion-invariant bo‘lmagan ikkita $\mu_1$ va $\mu_2$ $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovlari mavjud ekanligi isbotlangan.

Quyidagi teorema o‘rinli.

**1-teorema.** $k = 2$ ($k = 3$) bo‘lsin. U holda $\lambda > 4$ ($\lambda > 27/16$) bo‘lganda HC modeli uchun $\mu_1$ va $\mu_2$ $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovlari chekka o‘lchov bo‘ladi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi HC modeli uchun davri to‘rtga teng kuchsiz davriy Gibbs o‘lchovlarini (KDGO‘) o‘rganishga bag‘ishlangan. $\varnothing \neq A \subset N_k = \{1,2,...,k+1\}$ va $H_A = \{x \in G_k : \sum_{i \in A} w_x(a_i) -$ juft$\}$ bo‘lsin, bu yerda $w_x(a_i) -$son $x \in G_k$ so‘zdagi $a_i$ harflar soni. $G_k^{(4)} = H_A \bigcap G_k^{(2)} -$to‘rt indeksli bo‘lgan normal bo‘luvchi bo‘lsin. Quyidagi to‘plamlarni qaraylik:

$I_1 = \{(z_1, z_2, z_7, z_8) \in R^4 : z_1 = z_2 = z_7 = z_8\}$, $I_2 = \{(z_1, z_2, z_7, z_8) \in R^4 : z_1 = z_7,\ z_2 = z_8\}$,

$I_3 = \{(z_1, z_2, z_7, z_8) \in R^4 : z_1 = z_2,\ z_7 = z_8\}$, $I_4 = \{(z_1, z_2, z_7, z_8) \in R^4 : z_1 = z_8,\ z_2 = z_7\}$.

R.M. Xakimov va G‘.T. Madg‘oziyev ishlaridan quyidagilar ma’lum:

1. $I_1$ invariant to‘plamda $k \geq 1, i \leq k$; $I_3$ invariant to‘plamda $k = 2, i = 2$ va $k \geq 1, i = 1$; $I_4$ invariant to‘plamda $k = 2, i = 1$, $k = 3, i = 1$ va $k = i$ bo‘lgan hollarda KDGO‘ yagona va u yagona translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlari (TIGO‘) bilan ustma-ust tushadi.
2. $I_2$ invariant to‘plamda $k = 2, i = 1$ va $k = 2, i = 2$ bo‘lgan hollarda parametrning KDGO‘ yagona bo‘lmaydigan aniq qiymati mavjud;
3. $I_2$ invariant to‘plamda $k = 3, i = 1$ bo‘lgan holda parametrning KDGO‘ yagona bo‘lmaydigan qiymati mavjudligi ko‘rsatilgan.

Uchinchi paragrafning asosiy natijalari quyidagilar.

**2-teorema.** HC modeli uchun normal bo‘luvchining indeksi to‘rt bo‘lganda quyidagilar o‘rinli:

1. $k = i$ bo‘lganda $I_3$ invariant to‘plamda KDGO‘ yagona va u yagona TIGO‘ bilan ustma-ust tushadi.
2. $I_3$ invariant to‘plamda 1) $k = 3, i = 2$, 2) $k = 4, i = 1$, 3) $k = 4, i = 2$, 4) $k = 4, i = 3$ и 5) $k = 5,\ i = 1$ bo‘lgan hollarda $I_4$ invariant to‘plamda KDGO‘ yagona va u yagona TIGO‘ bilan ustma-ust tushadi.

**3-teorema.** $k = 3$, $i = 1$ va $\lambda_{cr} = 27/16$ bo‘lsin. U holda $I_2$ to‘plamda $\lambda \leq \lambda_{cr}$ bo‘lganda translyatsion-invariant bo‘lgan yagona KDGO‘ mavjud, $\lambda > \lambda_{cr}$ da biri TIGO‘, qolgan ikkitasi davriy bo‘lmagan uchta KDGO‘ mavjud.

Quyidagicha belgilashlar kiritaylik:

$$s^{\pm} := s^{\pm}(k) = \frac{k - 3 \pm \sqrt{k^2 - 6k + 1}}{4}, \quad \lambda^{\pm} := \lambda^{\pm}(k) = \left(s^{\pm} + 1\right)^k s^{\pm}.$$

**4-teorema.** $k \geq 6$, $i=1$ va $\lambda \in \left(\lambda^{-}(k), \lambda^{+}(k)\right)$ bo‘lsin. U holda HC modeli uchun normal bo‘luvchi indeksi to‘rt bo‘lganda $I_4$ to‘plamda kamida uchta KDGO‘ mavjud va ulardan biri TIGO‘, ikkitasi davriy bo‘lmagan KDGO‘.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Spin qiymatlari to‘plami sanoqlita bo‘lgan HC modeli uchun Gibbs o‘lchovlari”** deb nomlanib, Keli daraxtida spin qiymatlari to‘plami $\mathbb{Z}$ bo‘lgan HC modellariga bag‘ishlanadi.

$\Phi = \mathbb{Z}$ bo‘lsin, bu yerda $\mathbb{Z}$ butun sonlar to‘plami. $\mathbb{Z}$ to‘plamni biror cheksiz $G$ grafning uchlari to‘plami deb qaraylik. Agar $V$ ($V_n$) dagi ixtiyoriy $x, y$ yaqin qo‘shnilar uchun $\{\sigma(x), \sigma(y)\}$ juftlik $G$ grafning qirrasi bo‘lsa, u holda $\sigma$ konfiguratsiya Keli daraxti ($V_n$) da $G$-joiz konfiguratsiya deyiladi. $G$-joiz konfiguratsiyalar to‘plamini $\Omega^G$ $\left(\Omega^G_{V_n}\right)$ orqali belgilaymiz.

$G$ graf uchun aktivlik to‘plami $\lambda : G \to R_+$ chegaralangan funksiyadir. $\lambda$ funksiyaning $i \in \mathbb{Z}$ uchlardagi $\lambda_i$ qiymatlari uchning “aktivligi” deyiladi.

Berilgan $G$ va $\lambda$ lar uchun $G-$HC modelning gamiltoniani

$$H^{\lambda}_G(\sigma) = J \sum_{x \in V} \ln \lambda_{\sigma(x)}, \quad \text{agar } \sigma \in \Omega^G,$$

kabi aniqlanadi, bu yerda $J \in \mathbb{Z}$.

$z : x \to z_x = \left(\ldots, z_{-1,x}, z_{0,x}, z_{1,x}, \ldots\right) \in \mathbb{R}^{\infty}_{+}$ $V$ dagi vektor-funksiya bo‘lsin. $z_{i,x}$ ni $i \in \mathbb{Z}$ va $x \in V$ argumentlari bo‘yicha chegaralangan deb olaylik.

Har bir $n = 1, 2, ...$ va $\lambda > 0$ uchun $\Omega^G_{V_n}$ to‘plamda

$$\mu^{(n)}(\sigma_n) = \prod_{x \in V_n} \lambda_{\sigma_n(x)} \prod_{x \in W_n} z_{\sigma_n(x), x}. \tag{3}$$

ko‘rinishda aniqlangan $\mu^{(n)}$ ehtimollik bo‘lmagan taqsimotni qaraylik.

$L(G)$ orqali $G$ grafning qirralar to‘plamini belgilaylik, $A \equiv A^G = (a_{ij})_{i,j \in \mathbb{Z}}$ orqali esa $G$ ning qo‘shnilik matritsasini belgilaylik, ya’ni

$$a_{ij} = a^G_{ij} = \begin{cases} 1, & \text{agar } \{i, j\} \in L(G) \\ 0, & \text{agar } \{i, j\} \notin L(G). \end{cases}$$

Quyidagi teorema o‘rinli.

**5-teorema.** (3) formula bilan aniqlangan $\mu_n(\sigma_n)$, $n = 1, 2, \ldots$ o‘lchovlar ketma-ketligi muvofiqlik shartini qanoatlantirishi uchun ixtiyoriy $x \in V$ da $z = \left\{z_x, x \in G_k\right\}$ miqdorlar to‘plami ushbu

$$z'_{i,x} = \lambda'_i \prod_{y \in S(x)} \frac{a_{i0} + \sum_{m=-\infty}^{\infty} a_{im} z'_{m,y}}{a_{00} + \sum_{m=-\infty}^{\infty} a_{0m} z'_{m,y}}, \; i, m \in \mathbb{Z}_0,$$

tenglikni qanoatlantirishi zarur va yetarli, bu yerda $z'_{i,x} = \lambda'_i z_{i,x} / z_{0,x}$, $\lambda'_i = \lambda_i / \lambda_0$, $\mathbb{Z}_0 = \mathbb{Z} \setminus \{0\}$.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida spin qiymatlari to‘plami sanoqli bo‘lgan HC modeli uchun “Jezl” turidagi $G$ graf holida ehtimollik bo‘lmagan Gibbs o‘lchovlari qaralgan. Quyidagi ko‘rinishda aniqlangan grafni qaraylik:

$$a_{ij}=\begin{cases}1, \text{ agar } \ i=j \ \text{ va } \ i,j-\text{toq},\\ 1, \text{ agar } \ |i-j|=1,\\ 0, \text{ boshqa } \ \text{hollarda},\end{cases}$$

bu yerda $i,j\in\mathbb{Z}$.

$G=jezl$ turidagi graf uchun quyidagi teorema o‘rinli.

**6-teorema.** $k=2$ ($k=3$, $k=4$) va $\lambda_{cr}=2$ ($\lambda_{cr}=8/27$, $\lambda_{cr}=1/24$) bo‘lsin. U holda spin qiymatlari to‘plami sanoqli bo‘lgan HC modeli ($G=jezl$ grafga mos keluvchi) uchun $0<\lambda\le\lambda_{cr}$ bo‘lganda aniq bitta $\mu_0$ ehtimollik bo‘lmagan $\sigma$-chekli TIGO‘ mavjud, $\lambda>\lambda_{cr}$ da esa aniq uchta $\mu_0$, $\mu_1$, $\mu_2$ ehtimollik bo‘lmagan $\sigma$-chekli TIGO‘ mavjud.

$G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovlari uchun quyidagi invariant to‘plamlarni qaraylik:

$$I_1=\left\{(z_1,z_2,\widehat{z}_1,\widehat{z}_2)\in R^4: z_1=z_2=\widehat{z}_1=\widehat{z}_2\right\},\ I_2=\left\{(z_1,z_2,\widehat{z}_1,\widehat{z}_2)\in R^4: z_1=\widehat{z}_1,\ z_2=\widehat{z}_2\right\},$$
$$I_3=\left\{(z_1,z_2,\widehat{z}_1,\widehat{z}_2)\in R^4: z_1=\widehat{z}_2,\ z_2=\widehat{z}_1\right\},\ I_4=\left\{(z_1,z_2,\widehat{z}_1,\widehat{z}_2)\in R^4: z_1=z_2,\ \widehat{z}_1=\widehat{z}_2\right\}.$$

Quyidagi teorema o‘rinli.

**7-teorema.** Spin qiymatlari to‘plami sanoqli bo‘lgan HC modeli uchun ($G=jezl$ grafga mos keluvchi) quyidagilar o‘rinli:

1. $k\ge 2$ bo‘lsin. U holda $\lambda>0$ bo‘lganda $I_3$ invariant to‘plamda aniq bitta ehtimollik bo‘lmagan $\sigma$-chekli yagona $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovi mavjud. Bu o‘lchov yagona $\mu_0$ ehtimollik bo‘lmagan TIGO‘ bilan ustma-ust tushadi.

2. $k=2$ ($k=3$) va $\lambda_{cr}=2$ $(\lambda_{cr}=256/27)$ bo‘lsin. U holda $I_4$ invariantda $\lambda\ge\lambda_{cr}$ bo‘lganda translyatsion-invariant bo‘lgan aniq bitta $\mu_0$ ehtimollik bo‘lmagan $\sigma$-chekli $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovi mavjud, $0<\lambda<\lambda_{cr}$ da aniq uchta $\mu_0$, $\widehat{\mu}_1$, $\widehat{\mu}_2$ ehtimollik bo‘lmagan $\sigma$-chekli $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovlari mavjud.

Ikkinchi bobning uchunchi paragrafida spin qiymatlari to‘plami sanoqli bo‘lgan HC modeli uchun “Faqat nolda sirtmoq” turidagi graf holida ehtimollik Gibbs o‘lchovlari qaralgan. Quyidagi ko‘rinishda aniqlangan grafni qaraylik:

$$a_{ij}=\begin{cases}1, \text{ agar } \ i\cdot j=0,\\ 0, \text{ boshqa } \ \text{hollarda},\end{cases}$$

bu yerda $i,j\in\mathbb{Z}$.

$G=faqat\ nolda\ sirtmoq$ turidagi graf uchun quyidagi teoremalar o‘rinli.

**8-teorema.** $k=2$ bo‘lsin. U holda spin qiymatlari to‘plami sanoqli bo‘lgan HC modeli uchun (“Faqat nolda sirtmoq” grafga mos keluvchi) quyidagilar o‘rinli:

1. Agar $\{\lambda_j\}_{j\in\mathbb{Z}_0}$ parametrlar ketma-ketligidan tuzilgan $\sum_{j\in\mathbb{Z}_0}\lambda_j$ qator

yaqinlashuvchi bo‘lsa, u holda yagona TIGO‘ mavjud.

2. Agar $\{\lambda_j\}_{j\in\mathbb{Z}_0}$ parametrlar ketma-ketligidan tuzilgan $\sum_{j\in\mathbb{Z}_0}\lambda_j$ qator uzoqlashuvchi bo‘lsa, u holda TIGO‘ mavjud emas

**9-teorema.** $k=2$ va $\Lambda_{cr}=4$ bo‘lsin. U holda sanoqli holatli HC modeli uchun ((“Faqat nolda sirtmoq” grafga mos keluvchi) quyidagilar o‘rinli:

1. Agar $\{\lambda_j\}_{j\in\mathbb{Z}_0}$ parametrlar ketma-ketligidan tuzilgan $\sum_{j\in\mathbb{Z}_0}\lambda_j$ qator yaqinlashuvchi va uning yig‘indisi $\sum_{j\in\mathbb{Z}_0}\lambda_j=\Lambda$ bo‘lsin. Agar $0<\Lambda\leq\Lambda_{cr}$ bo‘lsa yagona $G_k^{(2)}-$davriy Gibbs o‘lchovi mavjud va u yagona TIGO‘ bilan ustma-ust tushadi. Agar $\Lambda>\Lambda_{cr}$ bo‘lsa, uchta $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovi mavjud va ulardan biri yagona TIGO‘ bilan ustma-ust tushadi, qolgan ikkitasi translyatsion-invariant bo‘lmagan $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovilaridir.

2. Agar $\{\lambda_j\}_{j\in\mathbb{Z}_0}$ parametrlar ketma-ketligidan tuzilgan $\sum_{j\in\mathbb{Z}_0}\lambda_j$ qator uzoqlashuvchi bo’lsa, u holda $G_k^{(2)}$- davriy Gibbs o‘lchovi mavjud emas.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Potts modeli uchun Gibbs o‘lchovlari”** deb nomlanib, Keli daraxtida Potts modeli uchun translyatsion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

$\Phi=\{1,2,\dots,q\}$, $(q\geq 2)$ bo‘lsin. Barcha konfiguratsiyalar to‘plami $\Omega=\Phi^V$.

Potts modelining gamiltoniani ushbu

$$H(\sigma)=-J\sum_{\langle x,y\rangle\in L}\delta_{\sigma(x)\sigma(y)}-\alpha\sum_{x\in V}\delta_{1\sigma(x)},$$

formula yordamida aniqlanadi, bu yerda $J\in R$, $\alpha\in R-$tashqi magnit maydon, $\langle x,y\rangle-$ yaqin qo‘shnilar va $\delta_{ij}$ –Kroneker simvoli.

Ma’lumki, Keli daraxtida Potts modeli uchun $\mu^{(n)}(\sigma_n)$ o‘lchovlar ketma-ketligi muvofiqlashgan bo‘lishi uchun uchun ixtiyoriy $x\in V$ da $h=\{h_x, x\in G_k\}$ miqdorlar to‘plami ushbu

$$h_x=\sum_{y\in S(x)}F(h_y,\theta,\alpha), \tag{4}$$

tenglikni qanoatlantirishi zarur va yetarli, bu yerda
$F: h=(h_1,\dots,h_{q-1})\in R^{q-1}\to F(h,\theta,\alpha)=(F_1,\dots,F_{q-1})\in R^{q-1}$ funksiya ushbu

$$F_i=\alpha\beta\delta_{1i}+\ln\frac{(\theta-1)e^{h_i}+\sum_{j=1}^{q-1}e^{h_j}+1}{\theta+\sum_{j=1}^{q-1}e^{h_j}}$$

ko‘rinishda aniqlanadi va $\theta=\exp(J\beta)$, $S(x)$ to‘plam $x$ ning to‘g‘ri avlodlari va

$$h_{i,x}=\tilde{h}_{i,x}-\tilde{h}_{q,x},\ i=1,\dots,q-1.$$

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida uchinchi tartibli Keli daraxtida to‘rt holatli ferromagnit Potts modeli uchun TIGO‘ larining to‘liq tavsifi berilgan.

$\alpha=0$ bo‘lsin. Translyatsion-invariant yechimlarni qaraylik, ya’ni ixtiyoriy $x\in V$ uchun $h_x=h=(h_1,\dots,h_{q-1})\in R^{q-1}$ bo‘lsin. (4) tenglamadan $h=kF(h,\theta)$ ga egamiz, ya’ni

$$h_i=k\ln\left(\frac{(\theta-1)e^{h_i}+\sum_{j=1}^{q-1}e^{h_j}+1}{\theta+\sum_{j=1}^{q-1}e^{h_j}}\right),\ i=1,\dots,q-1. \tag{5}$$

$z_i=\exp(h_i),\ i=1,\dots,q-1$, belgilash kiritib, (5) dan ushbu

$$z_i=\left(\frac{(\theta-1)z_i+\sum_{j=1}^{q-1}z_j+1}{\theta+\sum_{j=1}^{q-1}z_j}\right)^k,\ i=1,\dots,q-1.$$

tenglamani olamiz.

Quyidagilar ma’lum:

$J<0$ $(\theta<1)$, $k\geq 1$ va $q\geq 2$ da Potts modeli uchun yagona TIGO‘ mavjud;

$J>0$ $(\theta>1)$ bo‘lganda, ixtiyoriy TIGO‘ ushbu

$$z=f_m(z)\equiv\left(\frac{(\theta+m-1)z+q-m}{mz+q-m-1+\theta}\right)^k \tag{6}$$

tenglamaning biror $m=1,\dots,q-1$ dagi yechimlariga mos keladi.

Ma’lumki, o‘lchovlarning chekkaligini o‘rganish uchun $z$ vektorning aniq ko‘rinishi kerak. (6) tenglamaning $k=3$, $q=4$ va $m=1$ bo‘lganda $z_1$ va $z_2$, mos ravishda $m=2$ bo‘lganda esa $z_3$ va $z_4$ yechimlarning aniq ko‘rinishi topildi.

K. Kuelske, U.A. Rozikov va R.M. Xakimov ishlaridan Potts modeli uchun $\theta>\theta_{cr}$ bo‘lganda 15 ta TIGO‘ larining mavjudligi ma’lum. (6) tenglamalar sistemasidagi simmetriyaga ko‘ra $(z_1,1,1)$, $(1,z_1,1)$ va $(1,1,z_1)$ (mos ravishda $(z_2,1,1)$, $(1,z_2,1)$ va $(1,1,z_2)$; $(1,z_3,z_3)$, $(z_3,1,z_3)$ va $(z_3,z_3,1)$; $(1,z_4,z_4)$, $(z_4,1,z_4)$ va $(z_4,z_4,1)$) yechimlarga mos o‘lchovlarning chekka bo‘lish va chekka bo‘lmaslik oraliqlari bir xil bo‘ladi. Shuning uchun mos ravishda $(1,1,1)$, $(z_1,1,1)$, $(z_2,1,1)$, $(1,z_3,z_3)$, $(1,z_4,z_4)$, $(z_1,z_1,z_1)$ va $(z_2,z_2,z_2)$ yechimlarga mos $\mu_0$, $\mu_1$, $\mu_2$, $\mu_3$, $\mu_4$, $\mu_5$ va $\mu_6$ o‘lchovlarning chekka bo‘lish va chekka bo‘lmaslik oraliqlarini o‘rganish yetarli.

Quyidagi teorema o‘rinli.

**10-teorema.** $q=4$, $k=3$, $\theta_1\approx 2.69994$, $\theta_{cr}=\theta_2=3$ va $J>0$ bo‘lsin. U holda Potts modeli uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:

1. $\mu_0$ o‘lchov $0<\theta<5$ da chekka o‘lchov bo‘ladi va $\theta>3+2\sqrt{3}$ da chekka o‘lchov bo‘lmaydi.
2. $\mu_1$ o‘lchov $\theta>\theta_1$ da chekka o‘lchov bo‘ladi .

3. $\mu_2$ o‘lchov $\theta_1 < \theta < \theta^{(4)}$ da chekka o‘lchov bo‘ladi va $\theta > \theta^{(1)}$ da chekka o‘lchov bo‘lmaydi, bunda $\theta^{(4)} \approx 4.506544$ va $\theta^{(1)} \approx 5.259758642$.

4. $\mu_3$ va $\mu_4$ o‘lchovlar mos ravishda $\theta_{cr} < \theta < \theta^{(7)}$ da chekka o‘lchov bo‘ladi va $\theta > \theta^{(3)}$ da chekka o‘lchov bo‘lmaydi, bunda $\theta^{(7)} \approx 3.915695379$ va $\theta^{(3)} \approx 4.055415669$.

5. $\mu_5$ o‘lchov $\theta_1 < \theta < \theta^{(5)}$ da chekka o‘lchov bo‘ladi va $\theta > \theta^{(2)}$ da chekka o‘lchov bo‘lmaydi, bunda $\theta^{(5)} \approx 4.395479909$ va $\theta^{(2)} \approx 5.110182292$.

6. $\mu_6$ o‘lchov $\theta_1 < \theta < \theta^{(6)}$ da chekka o‘lchov bo‘ladi va $\theta > \theta^{(6)}$ da chekka o‘lchov bo‘lmaydi, bunda $\theta^{(6)} \approx 4.254583559$.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi $q$ holatli antiferromagnit Potts modeli uchun davriy Gibbs o‘lchovlariga bag‘ishlangan, ya’ni ba’zi shartlar ostida translayatsion-invariant bo‘lmagan $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovlarining aniq soni ko‘rsatilgan.

Quyidagi invariant to‘plamlarni qaraylik:

$$I_m = \left\{z=(u,v)\in R^{q-1}\times R^{q-1} : x_i = x,\, y_i = y, i=\overline{1,m}, x_i = y_i = 1, i=\overline{m+1,q-1}\right\},$$

$$I_m' = \Big\{z=(u,v)\in R^{q-1}\times R^{q-1} : x_i = x,\ i=\overline{1,m},\ x_i = 1,\ i=\overline{m+1,q-1-m},$$
$$x_i = y,\ i=\overline{q-m,q-1},\ y_i = y,\ i=\overline{1,m},\ y_i = 1,\ i=\overline{m+1,q-1-m},$$
$$y_i = x,\ i=\overline{q-m,q-1}\Big\},$$

Quyidagi teorema o‘rinli.

**11-teorema**. $\theta_{cr} = \dfrac{k-q+1}{k+1}$ bo‘lsin. U holda Potts modeli uchun $k \geq 3$, $3 \leq q < k+1$ va $0 < \theta < \theta_{cr}$ bo‘lganda $\bigcup_{m=1}^{q} I_m$ va $\bigcup_{m=1}^{q} I_m'$ to‘plamlarda aniq $2\cdot\left(2^q - 1 + \sum_{m=1}^{[q/2]} C_q^m \cdot C_{q-m}^m\right)$ ta translayatsion-invariant bo‘lmagan $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovlari mavjud.

**3-eslatma**. U.A. Rozikov, R.M. Xakimov va F.H. Xaydarov ishlarida Potts modeli uchun $k \geq 3$, $3 \leq q < k+1$ va $0 < \theta < \theta_{cr}$ bo‘lganda $\bigcup_{m=1}^{q} I_m$ va $\bigcup_{m=1}^{q} I_m'$ to‘plamlarda kamida $2\cdot\left(2^q - 1 + \sum_{m=1}^{[q/2]} C_q^m \cdot C_{q-m}^m\right)$ ta translayatsion-invariant bo‘lmagan $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovlarining mavjud ekanligi isbotlangan.

## XULOSA

Dissertatsiya chekli holatli HC va Potts modellari uchun translayatsion-invariant va davriy Gibbs o‘lchovlariga, shuningdek, ularning chekkalik muammolari hamda spin qiymatlari to‘plami sanoqli bo‘lgan HC modeli uchun ehtimollik va ehtimollik bo‘lmagan Gibbs o‘lchovlariga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Ikkinchi va uchinchi tartibli Keli daraxtida ikki holatli HC modeli uchun ikki davriy Gibbs o‘lchovlarini to‘liq tavsifi berilgan va ularning o‘zining aniqlanish sohasida chekka bo‘lishligi ko‘rsatilgan.
2. Keli daraxtida ikki holatli HC modeli uchun normal bo‘luvchi indeksi to‘rt bo‘lgan holda kuchsiz davriy Gibbs o‘lchovlarini yagona bo‘lishining yangi shartlari topilgan.
3. Keli daraxtida ikki holatli HC modeli uchun normal bo‘luvchi indeksi to‘rt bo‘lgan holda kuchsiz davriy Gibbs o‘lchovlarini yagona bo‘lmaslik va mavjud bo‘lishining yangi shartlari topilgan.
4. 2, 3 va 4- tartibli Keli daraxtida spin qiymatlari to‘plami sanoqlita bo‘lgan HC modeli uchun joizlik grafi “Jezl” bo‘lgan holda ehtimollik bo‘lmagan $\sigma$-chekli translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlarining aniq soni topilgan.
5. 2 va 3- tartibli Keli daraxtida spin qiymatlari to‘plami sanoqlita bo‘lgan HC modeli uchun joizlik grafi “Jezl” bo‘lgan holda ehtimollik bo‘lmagan $\sigma$-chekli ikki davriy Gibbs o‘lchovlarining aniq soni topilgan.
6. 2- tartibli Keli daraxtida spin qiymatlari to‘plami sanoqlita bo‘lgan HC modeli uchun joizlik grafi “Faqat nolda sirtmoq” bo‘lgan holda parametrlar to‘plamining ehtimollik bo‘lgan ikki davriy Gibbs o‘lchovlarining soni 3 ta bo‘ladigan aniq qiymati topilgan.
7. Uchinchi tartibli Keli daraxtida to‘rt holatli ferromagnit Potts modeli uchun translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlarining chekka bo‘lish va bo‘lmaslik oraliqlari topilgan.
8. $k \geq 3$ tartibli Keli daraxtida antiferromagnit Potts modeli uchun ba’zi shartlar ostida translyatsion-invariant bo‘lmagan davriy Gibbs o‘lchovlarining aniq soni topilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**МАХАММАДАЛИЕВ МУХТОРЖОН ТУРСУНМУХАММАД УГЛИ**

# ПЕРИОДИЧЕСКИЕ МЕРЫ ГИББСА ДЛЯ МОДЕЛЕЙ ЖЕСТКОЙ СЕРДЦЕВИНЫ (HC) И ПОТТСА НА НЕАМЕНАБЕЛЬНЫХ ГРАФАХ

**01.01.01 – Математический анализ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ**
**ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Наманган – 2023 год**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, Науки и Инноваций Республики Узбекистан за № B2019.4.PhD/FM426.**

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (https://kengash.mathinst.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (http://www.ziyonet.uz).

| | |
|---|---|
| **Научный руководитель:** | **Хакимов Рустамжон Махмудович**<br>доктор физико-математических наук (DSc) |
| **Официальные оппоненты:** | **Жамилов Уйгун Умурович**<br>доктор физико-математических наук, старший научный сотрудник |
| | **Ботиров Голибжон Исроилович**<br>доктор физико-математических наук, старший научный сотрудник |
| **Ведущая организация:** | Национальный Университет Узбекистана |

Защита диссертации состоится «1» августа 2023 года в 16:00 часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 при Институте Математики имени В.И.Романовского. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9. Тел.: (+998 78) 207 91 40, e-mail: mathinst@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Математики имени В.И.Романовского (зарегистрирована за №163). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9. Тел.: (+998 78) 207 91 40).

Автореферат диссертации разослан «19» июля 2023 года.
(протокол рассылки № 2 от «19» июля 2023 года).

**У.А. Розиков**
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

**Ж.К. Адашев**
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., старший научный сотрудник

**У.У. Жамилов**
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., старший научный сотрудник

**ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации**. Многие проблемы теории информационного обмена и теории обслуживания сводятся к задачам теории мер Гиббса, которая является важным объектом при изучении термодинамических свойств физических и биологических систем. Следует отметить, что меры Гиббса являются одним из основных средств описания систем, состоящих из большого числа частиц, в статистической механике. Хотя развитие теории мер Гиббса в решетчатых системах началось с задач термодинамики, основанных на исследованиях Р.Л. Добрушина, O.E. Lanford и D. Ruelle, на сегодняшний день ее приложения можно встретить в различных областях науки и техники как химия, физика, биология, экономика, теория обслуживания, материаловедение.

В последние годы в мире особое внимание уделяется поиску оптимального решения задач теории обслуживания и обмена информацией путем развития теории мер Гиббса, которая является основным объектом изучения задач статистической физики и механики, одно из направлений науки, имеющее практические приложения. При этом большое значение имеет исследование трансляционно-инвариантных, периодических, слабопериодических мер Гиббса, соответствующих моделям физики и статистической механики, заданным в неаменабельных графах. Поэтому одной из важных задач является проведение целевых научных исследований в следующих областях теории мер Гиббса: определение полного описания периодических мер для данного гамильтониана; изучение задач крайности таких мер; проверка существования фазовых переходов для моделей со счетным множеством спиновых значений. Научные исследования, проводимые в вышеупомянутых направлениях, подтверждают актуальность темы диссертации.

В нашей стране всё больше внимания уделяется актуальным направлениям функционального анализа и теории функций с действительными переменными, фундаментальным наукам, имеющие научное и практическое применение. Следует признать, что за последние годы были достигнуты значительные результаты в построении трансляционно-инвариантных, периодических и слабо периодических мер Гиббса соответствующим классическим моделям с конечными или счётными спиновыми значениями, определенными на счетных графах, а также при решении практических задач функционального анализа. В качестве основных задач и направлений деятельности математической науки определено проведение научных исследований на уровне международных стандартов по приоритетным направлениям «Функциональный анализ, математическая физика и теория мер»[1]. В целях применения научных результатов в смежных областях науки имеет важное значение построение мер Гиббса, пригодных

[1] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 мая 2017 года №292 «Об организации вновь созданных научно-исследовательских институтов Академии наук Республики Узбекистан».

для моделей в неаменабельных графах с не более чем счётными спиновыми значениями и строгими ограничениями на их конфигурации.

